

9-Sinf Davlat va huquq asoslari fanidan ChSB -1.

**Sana: _____ Sinf _____ O'quvchining
F.I.SH. _____**

1-yarim yillik CHSB savollari original

1. Konstitutsiyasilar ifoda qilish shakliga ko'ra qanday turlaga ajratiladi? (B -2,5 ball)

- A) "asosiy" va "asosiy bo'lmagan"
- B) "hadya qilingan" va "xalq konstitutsiyasi"
- C) "yumshoq" va "qattiq"
- D) "yozilgan" va "yozilmagan"

2. Huquqiy madaniyat nima? (B -2,5 ball)

- A) kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishi.
- B) kishilarning huquq, qonunchilik, huquq-tartibot va boshqa huquqiy hodisalar haqidagi g'oyalari, bilimlari, tasavvurlari yig'indisi.
- C) davlat tomonidan o'rnatilgan va u tomonidan muhofaza qilinadiga xulq-atvor qoidasi.
- D) huquqqa, qonunlarga salbiy, ularni inkor qiluvchi, hurmatsizlik munosabatida bo'lish.

3. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda qaysi xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan? (B -2,5 ball)

- A) Shanxay hamkorlik tashkilotiga
- B) YUNESKO xalqaro tashkilotiga
- C) YUNISEF xalqaro tashkilotiga
- D) Birlashgan Millatlar Tashkilotiga

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining II bo'limiga oid ma'lumotlarni aniqlang. (Q - 4,5 ball)

1) fuqarolik jamiyati institutlarini o'z ichiga oladi; 2) ushbu bo'limda inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari belgilangan; 3) davlat va fuqaro bir-biriga nisbatan huquq va burchlar orqali o'zaro bog'liqligi aks etgan; 4) Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy holati ifodalangan; 5) fuqarolarning burchlari belgilangan; 6) "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi" faoliyati belgilangan.

- A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 5 D) 3, 4, 6

5. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash to'g'risidagi iltimosnomaga ilova qilinadigan hujjatlarni aniqlang. (Q -4,5 ball)

1) yaqin qarindoshlari haqida ma'lumot; 2) anketa, pasport yoki identifikatsiya ID karta (yashash uchun ruxsatnoma); 3) nikoh qayd etilganligi yoki ajralish to'g'risidagi guvohnoma; 4) sog'liqni saqlash tibbiy ma'lumotnoma; 5) yashashning qonuniy manbalari mavjudligini tasdiqlovchi hujjat.

- A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 3 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 4

6. Quyidagi holatlardan qaysi biri O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishni taqiqlash uchun asos bo'ladi? (Q - 4,5 ball)

- A) shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan, sudlangan va jazoni o'tayotgan bo'lsa
- B) shaxs xorijiy davlatda doimiy yashash uchun ruxsat olgan bo'lsa
- C) shaxs boshqa davlat fuqaroligini qabul qilgan bo'lsa

D) shaxs davlat organlariga o'zining fuqarolikdan chiqish istagini yozma tarzda bildirgan bo'lsa

7. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish tartiblarini to'g'ri moslashtiring. (Q -4,5 ball)

1) alohida tartibda 2) soddalashtirilgan tartibda	a) Anvar O'zbekistonda tirikchilikning qonuniy manbayiga ega bo'lganligi uchun fuqarolik berildi b) fizika fani bo'yicha olimga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi c) Nodir shaxsini tasdiqlovchi hujjatini muddati tugaganligi uchun yangidan oldi d) 16 yoshga to'lgan Umida yaqinda ID karta oldi
--	--

A) 1- d, 2- b; B) 1- b, 2- a; C) 1- c, 2- d; D) 1- c; 2- a.

8. Jamshid 17 yoshda, O'zbekistonda tug'ilgan va onasi O'zbekiston fuqarosi, otasi esa fuqaroligi bo'lmagan shaxs. Jamshidning fuqaroligi qanday aniqlanadi? (Q - 4,5 ball)

- A) Faqat otasining fuqaroligiga ega bo'ladi, chunki u voyaga yetmagan.
- B) O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi, chunki onasi O'zbekiston fuqarosi.
- C) Hech bir davlat fuqaroligiga ega bo'lmaydi, chunki otasining fuqaroligi yo'q.
- D) Faqat 18 yoshga to'lgach, qaysidir fuqarolikni tanlashga haqli bo'ladi.

9. Nodira O'zbekiston fuqarosi, turmush o'rtog'i esa Qozog'iston fuqarosi. Ularning farzandi Toshkentda tug'ilgan. Farzandning fuqaroligi qanday aniqlanadi? (Q - 4,5 ball)

- A) Bola faqat onasining fuqaroligini oladi, chunki u O'zbekistonda tug'ilgan.
- B) Bola faqat otasining fuqaroligini oladi, chunki ota chet el fuqarosi.
- C) Bola ota-onasining kelishuviga binoan O'zbekiston yoki Qozog'iston fuqaroligini tanlaydi.
- D) Bola ikki davlat fuqaroligini baravariga oladi.

10. A. ismli chet el fuqarosi O'zbekistonga doimiy yashash uchun ko'chib keldi va fuqarolik olish bo'yicha ariza berdi. Ariza huquqiy tekshiruvdan o'tdi, ammo ayrim hujjatlarda kamchiliklar topildi. Shu holatda A.ning fuqarolik olish arizasi rad etilgan bo'lsa, bu qaror qanchalik qonuniy va shaxs qanday huquqlarga ega? (M-5,5 ball)

- A) Ariza rad etilgani qonuniy, chunki hujjatlar to'liq taqdim etilmagan; shaxs sudga yoki davlat organiga murojaat qilish huquqiga ega va fuqarolik hujjatlar to'liq bo'lgach rasmiylashtiriladi.
- B) Ariza rad etilgan, lekin shaxs istalgan vaqtda fuqarolikni avtomatik oladi; sudga murojaat qilish shart emas.
- C) Ariza rad etilgan, chunki shaxs allaqachon boshqa davlat fuqaroligiga ega; fuqarolik olish jarayoni bekor qilinadi va sudga murojaat qilish mumkin emas.
- D) Ariza rad etilgan, lekin shaxs fuqarolikni olishi faqat chet el pasportini topshirgach amalga oshiriladi; sudga murojaat qilish shart emas.

O'quvchining to'plagan bali: _____

Tekshiruvchi o'qituvchi: _____ **(imzo)**

